



MAQOLLARNING TILSHUNOSLIKDA TUTGAN O'RNI

Babalova Dilafruz Asadovna

ISFT instituti 1 bosqich magistri

Xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi

Annotasiya: Maqollar xalq og'zaki ijodining eng qadimiy va boy janrlaridan bo'lib, tilshunoslik tadqiqotlarida ularga alohida e'tibor qaratiladi. Maqollarning tilshunoslikda o'rganilishi, ularning sintaktik, leksik va semantik xususiyatlarini aniqlash, shuningdek, ularning madaniy va psixologik aspektlarini tahlil qilish orqali tilni chuqurroq tushunishga yordam beradi. Ushbu maqolada maqollarning tilshunoslikdagi o'rni, ularning so'z boyligi, ma'no qatlamlari va mantiqiy tuzilmalari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Maqollar, Tilshunoslik, Leksik tahlil, Semantik xususiyatlar, Og'zaki ijod

Kirish: Maqollar – xalq og'zaki ijodining eng qadimiy va keng tarqalgan janrlaridan biri bo'lib, ular xalqning turmush tarzini, tarixiy tajribasini, madaniyatini va axloqiy qadriyatlarini ifodalaydi. Ular qisqa, o'qish va eslab qolish uchun qulay bo'lgan, lekin chuqur ma'no va hikmatga ega bo'lgan iboralardan iborat. Maqollar xalqning o'ziga xos dunyoqarashi, tasavvurlari va qarashlarini ifodalaydi, shu bilan birga, tilning rivojlanishi va uning strukturaviy xususiyatlari haqida qimmatli ma'lumotlar beradi. Tilshunoslik, tilni ilmiy tahlil qilish va uning turli jihatlarini o'rganish bilan shug'ullanadi. Tilshunoslarning maqollarni o'rganishlari esa tilning o'ziga xos elementlari, uning leksik, semantik, sintaktik



va frazeologik tuzilmalari haqida chuqurroq tasavvur hosil qilish imkonini yaratadi. Maqollar tilning rivojlanish tarixini, soʻz boyligini, frazeologik birliklarni, oʻzgaruvchan grammatik va semantik strukturalarni aniqlashda muhim manba hisoblanadi. Shuningdek, maqollarni tilshunoslik nuqtai nazaridan oʻrganish, biror millatning madaniy va ma'naviy merosini, uning tarixiy davrlarida yuzaga kelgan ijtimoiy qarashlarni ham tushunishga yordam beradi.

Maqollar tilshunoslikda bir nechta yoʻnalish boʻyicha oʻrganiladi. Birinchidan, maqollarni leksik jihatdan tahlil qilish orqali tilning soʻz boyligi, soʻz birikmalari va ularning semantikasi oʻrganiladi. Maqollar qisqa boʻlishiga qaramay, ular koʻpincha bir nechta soʻz birikmasi va frazeologizmni oʻz ichiga oladi, bu esa tilning kompleks va boy strukturaviy xususiyatlarini koʻrsatadi. Ikkinchidan, maqollarni sintaktik nuqtai nazardan oʻrganish tilning grammatik tizimlarini, jumlar qurilishi va soʻzlarning oʻzaro bogʻlanishini aniqlashga yordam beradi. Ayniqsa, maqollardagi qisqalik va aniq ifodalash uslubi, sintaktik qoidalarning qanday ishlashini koʻrsatadi.

Uchinchidan, maqollarni pragmatik tahlil qilish orqali ular oʻzining amaliy va ijtimoiy funksiyalarini bajarishdagi oʻrnini tushunish mumkin. Maqollar koʻpincha axloqiy yoki pedagogik maqsadlarda ishlatiladi, ular hayotdagi turli vaziyatlarga mos keladigan maslahatlar, ogohlantirishlar yoki hikmatlarni oʻz ichiga oladi. Shuningdek, maqollar milliy va madaniy xususiyatlarni ham aks ettiradi, chunki har bir xalqning maqollarida uning tarixiy oʻtmishi, falsafiy qarashlari va ijtimoiy me'yorlari oʻz aksini topadi. Shu bilan birga, maqollar tilshunoslikda xalq madaniyati va adabiyoti bilan chambarchas bogʻliqdir. Ular tilning ijtimoiy va psixologik jihatlariga alohida ahamiyat berish, jamiyatda qanday qarashlar va qadriyatlar hukmronligini aniqlashga yordam beradi. Masalan, oʻzbek



maqollarida ko‘pincha mehnat va halollik, odob-axloq, oila va do‘stlik kabi mavzular ilgari suriladi, bu esa o‘zbek xalqining madaniy va axloqiy qadriyatlarini aks ettiradi.

Maqollarning tilshunoslikda tutgan o‘rni, shuningdek, ularning xalq tilidagi mustahkam o‘rni bilan bog‘liq. Maqollar, tilning turli funktsiyalarini bajarishda yordamchi vosita sifatida ham ishlatiladi. Ular nafaqat so‘zlarni o‘rganishda, balki tilni o‘rgatishda, tilni chuqurroq tushunishda va ona tili bilan bog‘liq bo‘lgan barcha jihatlarni yaxshiroq anglashda muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar tahlili

Maqollarni tilshunoslik nuqtai nazaridan o‘rganish O‘zbekiston tilshunoslarining e‘tiborini qaratgan muhim mavzulardan biridir. O‘zbek olimlari tomonidan maqollarni tahlil qilishda asosan ularning leksik, semantik, sintaktik va pragmatik jihatlari o‘rganilgan. Maqollar tilshunoslikda, ayniqsa, frazeologiya va semantika sohalarida alohida e‘tibor bilan o‘rganiladi.

O‘zbek tilshunosligida maqollarni o‘rganishning boshlang‘ich bosqichlari, birinchi navbatda, ularning leksik va frazeologik tarkibini tahlil qilishga qaratilgan. Shunday olimlardan biri A. Ismoilov, maqollarni frazeologik birliklar sifatida tahlil qilib, ularning til va madaniyatdagi rolini o‘rgangan. Ismoilovning fikricha, maqollar nafaqat tilning boyligini aks ettiradi, balki xalqning ma‘naviyati va ijtimoiy me‘yorlarini ham ifodalaydi [1]. Bu nuqtai nazar maqollarni frazeologik birliklar sifatida o‘rganishning zarurligini ko‘rsatadi.

A. Rashidov, o‘zining maqollarni semantik tahlil qilishga bag‘ishlangan tadqiqotlarida, maqollarda ishlatilgan so‘zlarning ma‘nolarini, ularning o‘zgarish jarayonlarini va madaniy kontekstdagi ahamiyatini o‘rganadi. Rashidovning ta‘kidlashicha, maqollarni semantik jihatdan tahlil qilish, ularning dastlabki ma‘nosi bilan birga, vaqt o‘tishi bilan qanday yangi ma‘nolar va qo‘shimcha semantik qatlamlar hosil bo‘lishini ham



aniqlash imkonini beradi [2]. T. Xusniddinova o'zining "O'zbek xalq maqollarining sintaktik tuzilishi" mavzusidagi tadqiqotida maqollarning sintaktik xususiyatlarini tahlil qilgan. Xusniddinovaning fikricha, maqollar ko'pincha oddiy sintaktik tuzilmalarga asoslangan bo'lsa-da, ular stilistik jihatdan boy va aniq ifodalangan bo'ladi. U maqollarni o'rganishda tilning sintaktik qoidalarini aniqlash, ulardagi sintaktik konstruktsiyalarning qanday ishlashini tushunishga yordam beradi [3]. Shuningdek, maqollarning pragmatik jihatlari ham o'rganilgan. Z. Abdurahmanova maqollarni pragmatik tahlil qilishga qaratilgan ilmiy izlanishlarida maqollarning ijtimoiy va axloqiy funktsiyalarini ta'kidlagan. Uning fikricha, maqollar ko'pincha axloqiy tavsiyalar, ogohlantirishlar yoki maslahatlar sifatida ishlatiladi va ular ma'lum bir ijtimoiy vaziyatda qanday mantiqiy va amaliy funktsiyalarni bajarishini o'rganish juda muhimdir [4].

Tahlil va Natijalar

Maqollar mazmunan keng, shaklan qisqa ekanligi bilan folklorning boshqa janrlaridan ajralib turadi. Shuning uchun ham maqollar inson xotirasida xronologik tarzda tez va uzoq muddatga saqlanib qoladi. Birgina maqolda butun bir maqsad ifodalangan bo'ladi. Maqollarda xalqning uzoq yillik tajribasi aks etgani, pedagogik qarashlari, didaktik qonun-qoidalari mavjud ekanligiga alohida e'tibor qaratish lozim. Maqollar davrlar osha o'z ma'no kuchini yo'qotmaydi. Maqollardagi har bir so'zning to'la, mukammal ma'nosini teran idrok etish, izchil tahlil qiliish orqali o'quvchilar maqollarning oddiy gapdan farqi, xalqning maqol yaratishdan maqsadi, ma'lum bir masal, hikoya, ertaklarni xulosalashda maqollardan unumli foydalanishning usullarini o'rganadilar. Maqollar mazmuni asosida beriladigan nazariy va g'oyaviy bilimlar o'quvchilarni barkamol inson qilib tarbiyalash uchun xizmat qiladi.

Bu esa o'z navbatida, ularni jamiyatda o'z o'rinlari, ma'naviy-madaniy sifat va fe'l-atvorlarini oqilona belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.



Maqollar haqidagi nazariy tushunchalar tasnifiy belgilariga ko'ra sodda misollar yordamida ta'lim va tarbiya birligi asosida tahlil qilinadi. Maqollarni tuzilishi jihatidan quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Tartiblanishiga ko'ra;
2. Mavzusiga ko'ra;
3. Badiiyatiga ko'ra;
4. Tarixiylikiga ko'ra;
5. Tuzilishiga ko'ra tasnif.

Tartiblanishiga ko'ra tasnif.

Bu tasnifga ko'ra mavjud material alfavit tartibiga solinadi. Bu tasnif o'quvchilarning qancha miqdorda maqollarni yod olganliklari va qay darajada o'zlashtirganliklarini baholaydi. Bu tasnif o'quvchilardan maqollarning tematik tuzilishi, poetik tabiati, tarixiylik va boshqa hossalarni bilishni talab etmaydi. O'quvchilarning mustaqil maqollarni o'rganishi o'qituvchi ishida ham qulaylik yaratadi. Alfavit tartibida yod olingan maqollar mavzu va mazmun jihatidan tahlilga tortilganda o'qituvchi va o'quvchilarga ancha yengillik beradi. Alfavit tartibiga keltirilgan maqollar ketma-ketligi kishilar xotirasida tez va uzoq muddat saqlanishini ta'minlaydi.

1. Aqlli o'zini ayblar, aqlsiz - do'stini.
2. Baxilning bog'i ko'karmas.
3. Daraxtni yer ko'kartiradi,
Odamni el ko'kartiradi.
4. Eshik ochiq bo'lsa ham so'rab kir!



5. Fikri ravshanning - so‘zi ravshan.
6. Gap quvgan baloga yo‘liqar,
Ish quvgan – xazinaga.
7. Halol mehnat – yaxshi odat,
Berur senga saodat.
8. Insofsizga erk, bersang, elni talar.
9. Jamg‘armani selga berma, elga ber!
10. Ko‘za kunda sinmaydi, kunida sinadi.
11. Lolaqizg‘aldoq ko‘kat ichida ham ko‘rinaveradi.
12. Maqtoov uxlatar, tanqid uyg‘otar.

Mavzusiga ko‘ra tasnif. Bu tasnifga ko‘ra maqollar mavzu jihatidan muayyan guruhlariga ajratiladi. Bunday maqollar ham tajribada sinalgan fikrni tasdiqlaydi va asoslaydi, maqolning inson uchun muhim qirralari tahlil qilinadi, uning zarurligi yoritiladi. Mavzu asosida tahlil qilinayotgan maqollar voqeilikni individual shaklda emas, aksincha, umumlashtirish darajasida ekanligi bilan ajralib turadi. Unda xalqning pedagogik qarashlari - axloq-odob, ta‘lim-tarbiya, orzu-umid, ijtimoiy hayotga munosabat, hayotda sinalgan tajriba va uning ibratli saboqlari o‘z aksini topgan.

Masalan: Vatan mavzusidagi maqollarni o‘rganishda yurtni sevish, qadrlash, obodonlashtirish, mehnat, hunar, tinchlik-osoyishtalik, axloq-odob, mehr-oqibat, do‘stlik, halollik va rostgo‘ylik, kamtarlik, hurmat-izzat, ilm-fan, aql, madaniyat, mardlik, insoniylik, donolik va nodonlik, saxiylik va baxillik, qo‘rqoqlik, qadr-qimmat, qavm-qarindoshlik, yaxshilik va yomonlik mavzusidagi maqollar bilan bog‘liq holda tahlil



etish, nazariy jihatdan bolalarning dunyoqarashi va tafakkurini shakllantirsa, amaliy tomonlama yetuk, barkamol inson sifatida kamol topishiga zamin hozirlaydi.

Hamisha ona Vatanni har qanday ichki va tashqi yovuz kuchlardan ko‘z qorachig‘iday asrash, asosan, Vatanga bo‘lgan muhabbat va sadoqatni ifodalash, uning qadr-qimmatini uqtirish, tabiiy boyliklari, mulki, tabiatini asrab-avaylashni o‘rgatish, obrazli tasvirlash maqollarning badiiy mukammalligini ta‘minlaydi.

“Har kim o‘z yurtida bek,

O‘z yurtida sulton”.

“Ona yurtning – oltin beshiging”.

“Vataning tinch – sen tinch”.

“Vatan uchun o‘lmoq ham sharaf”.

“Vatan gadosi – kafan gadosi” - singari maqollarda o‘z vataniga, tug‘ilib o‘sgan yurtiga, yashaydigan uyiga cheksiz muhabbat va iftixor tuyg‘ulari, o‘z vatanida yashashni haqiqiy baxt deb anglash, vatanni ona timsolida tasavvur etish aks ettirilgan. Vatanga xiyonat qilish, yashaydigan uyiga, oila a‘zolariga sotqinlik qilish ekanligi, unday kimsalarning baxtsizlikka mahkumligi ko‘rsatiladi. Xalqning tinchini buzib, vatanning farovonligi-yu obodligiga raxna soladigan kishilarning oxir-oqibatda xor-zor bo‘lishi misollar asosida keng yoritiladi. Vatan uchun ko‘rsatilgan fidoyilik shon-shuhrat hisoblanishi, vatanning ko‘rki –yashaydigan uyining husni-tarovati ekanligi, unda tinchlik, osoyishtalik hukm surishini anglash lozim. Obod vatanning go‘zal go‘shasida shinam uy qurish, uni bezash, chiroyli kiyinish, yaxshi yeb-ichish, to‘kin yashash uchun mehnat qilish, hunar o‘rganish, biror kasbni egallash, tinimsiz mehnat qilish talab etiladi. Inson turmushda talab etiladigan ehtiyojlarini qondirishda, ma‘naviy boyligini o‘stirishda faqat mehnatga suyanadi. Mehnat ahli hamisha ulug‘lanadi, yozma adabiyotda ham, ertak va



dostonlarda ham halollik, to‘g‘rilik, olijanoblik timsoli sifatida tasvirlanadi. Masalan: “Halol ishla – halol tishla, “Mehnatdan kelsa boylik, turmush bo‘lar chiroylik”, “Mehnat – farog‘at chirog‘i”, “Odam mehnati cho‘lni bo‘ston qilar”, “Qunt bilan o‘rgan hunar, hurandan rizqing unar” kabi maqollar mazmun va ma‘no mohiyatiga ko‘ra yuksak fazilat, baxtli yashash uchun mehnat qilish tuyg‘usini o‘zida qamrab olgan.

Axloqiy mezonning birliklari – aql, insof, odob, insoniylik, olijanoblik muomala va munosabat madaniyati, bola tarbiyasi va xulqi, saxiylik, hurmat-izzat, vafo va sadoqat, qanoat va mehnat, ilm va hunar- bularning barchasi bir butunlikni tashkil etib, biri- ikkinchisini to‘ldirishda muhim vosita, bir-birini yaratishda zamin bo‘lib xizmat qiladi. Sharqona tarbiyaning barcha xususiyatlarini o‘zida mujassamlashtirgan maqollar asosida yaratilgan rivoyatlar, ertaklar, masallar, hikoyatlar hatto yozma adabiy asarlardan namunalar keltirish maqolning mazmun mohiyatini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Masalan: A.Navoiyning nasihatnoma deb atalmish ”Mahbub-ul-qulub” (Ko‘ngillarning sevgani) asarida keltirilgan axloqiy-ta’limiy masalalarga oid hikoyalardan misol tariqasida o‘qib berish foydadan holi emasdir.

Asarning 2-qismida “Sabr” to‘g‘risida shunday hikoyat keltirilgan: “Naql qilishlaricha, bir bechora – notavonning ko‘ngliga bir gulyuzning ishq tushdi. U tuhmat tufayli zindonga giriftor bo‘ldi. Tuhmatni bo‘yniga qo‘yish uchun unga berilmagan azob qolmadi, ammo u maxfiy sirini tiliga olmadi. Oqibat mirshablar uni zindondan tortib chiqazdilar va bosh-oyog‘idan tortib bir qo‘choq yog‘ochni badaniga urib ushatdilar. Shunda ham, u bechora mutlaqo dam urmadi va iqror so‘zini tiliga keltirmadi, nihoyat, zolimlar uni azoblashdan charchadilar va o‘rtadan sudrab chiqarib, noilojlikdan qo‘yib yubordilar...



Bu oshiq yigit so‘ng tasavvur qilib bo‘lmas davlatga muyassar bo‘ldi va xayol qilib yetmas saodatga erishdi. Bu baxt - barcha qiyinchiliklarni sabr-chidam bilan yengish namunasidir. Bunga azob-uqubatga bardosh ko‘rsatish orqali erishiladi”¹.

Badiiyatiga ko‘ra tasnif. Maqollar o‘z tabiatiga ko‘ra leksik-semantik xususiyati hamda badiiy tasviriy vositalarga boyligi bilan ajralib turadi.

Maqollar mazmunidagi semantik ko‘chimlar o‘z va ko‘chma ma’noda qo‘llanishi bilan farqlanadi va davrga mos holda o‘zgarib turadi.

O‘zbek xalq maqollari badiiy xususiyatiga ko‘ra ikki turga guruhlanadi:

- a) leksik - semantik tur;
- b) badiiy tasviriy vositalar turi.

Leksik – semantik tur o‘z va ko‘chma ma’no hodisalarini o‘z ichiga oladi.

O‘z ma’nosida qo‘llanuvchi maqollar mazmunida narsalarning o‘ziga xos xususiyati, mohiyati ochiladi, tajribada sinalgan holat xulosanadi. Xususan, “Avval bil, keyin qil”, “Avvalini berguncha, oxirini bersin”, “Baliq suv bilan tirik, odam el bilan”, “Ishlamagan tishlamas”, “Oshning ta’mi tuz bilan”, “Bahorgi beg’amlik – kuzgi pushaymonlik”, “Dehqonning ishi yer bilan, yerning ishi suv bilan”, “Gap bilan va’da berma, ish bilan dalda ber”, “Hunar – birlikda, rizq – tiriklikda”, “Sog‘ bo‘lay desang, ozoda yur!”, “Quyosh havoni isitsa, do‘stlik qalbni isitadi.”, “Temirchining qo‘lida temir erib suv bo‘lar”, “Qush pati bilan, inson aqli bilan go‘zal” singari maqollarni keltirish joiz.

Ko‘chma ma’nodagi maqollar sodir bo‘lgan voqea-hodisalarni jamiyat hayotiga bog‘laydi, inson uchun uning muhimligi ta’kidlanadi. “Toza qalbdagi dog‘ bo‘lmas”, “Do‘ppining tagida odam bor”, “Ko‘za kunda emas, kunida sinadi”, “Qush uyasida ko‘rganini qiladi”, “Hovli olma, qo‘shni ol!”, “O‘zi yo‘qning ko‘zi yo‘q”, «Quloqdan ko‘z

¹ A.Navoiy “Mahbub ul-qulub”. Toshkent: G‘. G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti. 1983. –B. 46-47



haq”, “Qozonda bo’lsa, cho’michga chiqar”, “Qimirlagan qir oshar”, “Yurgan daryo, o’tirgan bo’yra”, “To’dadan ajralgan to’rga tushar”, “Kuch bilimda”singari maqollar majoziy ma’no kasb etishi bilan birga, o’z o’rnida ma’lum bir voqea-hodisa bilan bog’langan holda qo’llaniladi.

Xulosa

Maqollarni tilshunoslikda o’rganishning asosiy maqsadi, ularning til tizimida qanday joy egallashini, qanday grammatik va semantik tuzilmalar mavjudligini aniqlashdir. Ular leksik va frazeologik birikmalarning mavjudligi, sintaktik tuzilmalar va ifodalar orqali tilning ichki me’yorlarini ko’rsatadi. Maqollarni semantik nuqtai nazardan tahlil qilish, ularning tarixiy o’zgarishlarini va yangi ma’no qatlamlarini aniqlashga yordam beradi. Shuningdek, pragmatik jihatdan maqollar hayotdagi turli vaziyatlarga mos ravishda ijtimoiy va axloqiy masalalarni ifodalovchi vosita sifatida ishlatiladi. Maqollarni o’rganish, shuningdek, til va madaniyat o’rtasidagi o’zaro aloqani ochib beradi. Har bir xalqning maqollari uning tarixiy o’tmishi, me’yorlari, qadriyatlari va hayotga bo’lgan qarashlarini aks ettiradi. O’zbek maqollari ham o’zining axloqiy, pedagogik va ijtimoiy funktsiyalari bilan ajralib turadi. Ular xalqning mehnatga bo’lgan munosabati, odob-axloq, do’slik, halollik kabi qadriyatlarni namoyon etadi. Shunday qilib, maqollarni tilshunoslik nuqtai nazaridan o’rganish, nafaqat tilni chuqurroq tushunishga, balki o’zbek xalqining madaniy va axloqiy merosini saqlashga ham hissa qo’shadi.

Xulosa qilib aytganda, maqollarni o’rganish tilshunoslik ilmida katta ahamiyatga ega bo’lib, ularning tahlili til va madaniyatning o’zaro bog’liqligini, xalqning dunyoqarashi va qadriyatlarini yanada to’liqroq anglashga yordam beradi. Maqollarni chuqur tahlil qilish, nafaqat ilmiy izlanishlar uchun, balki ona tilini o’rgatishda ham muhim vosita hisoblanadi. Shuning uchun, maqollarni o’rganish, tilshunoslik fani rivojida muhim qadam bo’lib, xalq og’zaki ijodining boy merosini kelgusi avlodlarga etkazish imkoniyatini yaratadi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ismoilov A. "O'zbek xalq maqollarining frazeologik tahlili", Toshkent, 2010, 35-bet.
2. Rashidov A. "Maqollar va ularning semantik tuzilishi", Samarqand, 2015, 42-bet.
3. Xusniddinova T. "O'zbek xalq maqollarining sintaktik tuzilishi", Farg'ona, 2012, 58-bet.
4. Abdurahmanova Z. "Maqollarning pragmatik jihatlari", Toshkent, 2017, 61-bet.
5. Dilnavoz Abdurahimova. O'zbek Xalq Maqollarining Lingvopoetik Tahlili. 2-bet
6. Соатов Б. (1994). Узбек халк маколларининг жанр хусусиятлари ва поэтикаси. - Тошкент.
7. Шамсиева М. Узбек ва рус хал; маколларидаги "бахт" ва "бахтсизлик" концептларининг киёсий тахлили // Узбек тили ва адабиёти, - Тошкент. 2019.